

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 5, 31 Май**

**AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNING O'RNI**

Norqobilov N.N. - Termiz Davlat Universiteti , i.f.f.d. (Phd)
Mamatqulov A. - Temiz Davlat Universiteti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati, hozirgi globallashuv va axborotlashgan davrda mazkur sub'ektlarning o'ziga xos ijobjiy sifatlari, aholini band etish ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЗАНЯТОСТИ**

Аннотация (рус) В данной статье разработаны роль и значение малого бизнеса и частного предпринимательства в национальной экономике, уникальные положительные качества этих субъектов в современный век глобализации и информации, а также предложения по повышению социально-экономического благосостояния населения.

**THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE
ENTREPRENEURSHIP IN EMPLOYMENT**

Abstrakt In this article, the role and importance of small business and private entrepreneurship in the national economy, the unique positive qualities of these entities in the current globalization and information age, and suggestions for increasing the socio-economic prosperity of the population have been developed.

Ключевые слова Экономический рост, занятость, эффективность, частное предпринимательство, рыночная инфраструктура, процветание, сервис.

Key words: Economic growth, employment, efficiency, private entrepreneurship, market infrastructure, prosperity, service.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, bandlik, samaradorlik, xususiy tadbirkorlik, bozor infratuzilmasi, farovonlik, servis.

KIRISH

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor munosabatlarining faol ishtirokchisi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini, yalpi milliy mahsulot tarkibi va sifatini, aholi bandligi va daromadlaridagi ulushi o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lgan yetakchi sektorlardan biridir.

Yakka tartibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek turli xil kooperativlar, shirkatlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar kurinishidagi yangi kichik korxonalarni tashkil etish ikkinchi kudratli jarayon hisoblanadi. Mamlakatimizda mavjud korxonalarining asosiy kismini kichik korxonalar tashkil etmoqda. Iqtisodiyotining negizini tashkil etgan, xilma-xil shakldagi mulkchilikka asoslangan kichik korxonalar endilikda respublikamiz iqtisodiyotida tobora salohiyatlari o'rinni egallamoqda.

Kichik korxonalarni rivojlantirish – jamiyatni iqtisodiy tizim harakatlarini barqarorlashtirish orqali iqtisodiy farovonlikning asosi bo'lib xizmat qilishi kerak. Shuning uchun bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish milliy xo'jaligimizni isloh qilishdagi dolzarb vazifalardan biridir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi, bir tomonidan yangi mulkchilik subyektlarini tashkil etish, ikkinchi tomonidan esa, yirik korxonalarni bosqichma-bosqich ravishda moslashuvchan xo'jalik subyektlariga aylantirish, ishlab chiqarishni monopoliyadan chiqarish, uchinchidan xo'jalik majburiyatlarini bajara olmay, bankrotlik yoqasiga kelgan yirik korxonalarni nol qiymat bilan tadbirkorlik subyektlarining zamonaviy turdagini faoliyatiga yo'naltirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka nisbatan respublikamizni iqtisodiy jihatdan jadal rivojlantirishni ta'minlaydigan omil deb qaramog'imiz lozim».

Kichik biznes korxonalari butun iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular iste'mol talabining o'zgarib borishiga tezkor moslashadi, iqtisodiy vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o'z faoliyat yo'nalishini tez va nisbatan salbiy asoratsiz o'zgartira oladi.

Hozirgi paytda kichik korxonalarni molijyalashtirish va ularga bank xizmatini ko'rsatishni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, kichik biznesva xususiy tadbirkorlikning eng muhim ehtiyojini moddiy va moliyaviy resurslar tashkil etadi. Kichik biznes korxonalarining yashash davriyilagini uzaytirish, ularning istiqbolini belgilash qo'shimcha sarmoyalarni doimiy ravishda yo'naltirib, aylanma mablag'larining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini oshirib

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 5, 31 Май

borishga bog‘liq. Bu o‘z navbatida kichik biznes subyektlarining huquqiy-iqtisodiy bilimlarini oshirish, tashabbusorlik, innovatorlik g‘oyalarini tezkor o‘zlashtirish ehtiyojini oshiradi.

Xususan Surxondaryo viloyatida 2023 yil yakunlariga ko‘ra, YAHM dagi ulushi (68,9 %) ni iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 53,7 foizi nodavlat sektoriga to‘g‘ri keladi. 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 66,0 foizi kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2023 yil mobaynida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- 780,2 ming nafar kishining bandligi ta’minlandi (jami iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 53,7 foizi), shu jumladan band bo‘lganlarning 705,6 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkor, 190,7 ming nafari kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri keldi;

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 764,5 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 42,9 foizi) yoki 2023 yilning yanvar-dekabrga nisbatan 103,2 foizni tashkil qildi;

- 36679,0 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o‘sish sur’ati 101,1 foizni ;

- 1628,3 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 54,7 foizi) o‘zlashtirildi va 2023 yilning yanvar-dekabrga nisbatan 101,4 foizni tashki qildi;

- 1312,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 89,9 foizi) bajarildi va 2023 yilning yanvar-dekabrga nisbatan 111,4 foizga ko‘paydi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 105,2 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 103,1 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 106,1 foizga (umumiyligi yo‘lovchi aylanmasining 104,0 foizi) ko‘payishi ta’minlandi;

- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 95,6 foizi yoki 3796,3 mlrd. so‘mi (o‘sish 111,5 foiz) va pullik xizmatlar umumiyligi hajmining, mos ravishda 69,7 foizi yoki 3109,3 mlrd. so‘mi (o‘sish 110,7 foiz) shakllantirildi;

- 256,7 mln. AQSH dollari (umumiyligi eksport hajmining 65,4 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. AQSH dollari (umumiyligi import hajmining 90,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Yuqoridagi tahliliy ma’lumotlardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonga o‘ziga xos mehnat resurslari tez o‘suvchi va ishlab chiqarish omillari

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

joylashuvidagi notekis sharoitlarda, kichik biznes va xususiy korxonalarini yanada ko‘proq tashkil etilishi quyidagilarga imkon yaratadi:

- erkin mehnat resurslarini va yangi xo‘jalik munosabatlarining joriy etilishi, yangi mulkchilik shakllarining paydo bo‘lishi natijasida ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligidan bo‘shatiladigan shaxslarni ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga ko‘proq jalb etish;
- aholining, ayniqsa yoshlarning kasbiy-amaliy va madaniy salohatini oshirish bilan mehnat safarbarligini yuksaltirish;
- aholisi nisbatan sust harakatchan hududlarga sanoat, savdo va xizmat ko‘rsatish subyektlarga yaqinlashtirish;
- milliy va badiiy hunarmandchilik, amaliy san’at sohalarini yanada jonlantirish;
- joylarda bozor infratuzilmasini bir tekisda rivojlantirish orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini keskin oshirish.

References:

Norqobilov, N. (2020). The role of foreign investment in the development of the economy of Kashkadarya region. *Business Expert*, 1, 145.

Norqobilov, N., & Abdullayev, J. (2023). Specific features of solving the housing problem in our country in the context of economic reforms. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(2), 21-23.

Норқобилов, Н. Н. (2017). Таълим тизимини бюджетдан ташқари молиялаштириш ва кадрлар тайёрлашда маркетингнинг ўрни. *Современное образование (Узбекистан)*, (8), 36-40.

Norqobilov, N., & Rasulov, F. (2023). THE ROLE OF SOCIAL PROTECTION IN IMPROVING THE LIVING WELL-BEING OF THE POPULATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(2), 24-25.

Norkobilov, N. N. (2021). Structure and features of expanding investment in the southern region of uzbekistan. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 704-709.